

## FITOTSENOZ VA SUKSESSIYA

Oxnorova Iroda Baxtiyor qizi

Yo'ldashaliyeva Nilufar Shavkatjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo'nalishi talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7989255>

**Annotatsiya:** Bizga ma'lumki, yerning hamma joyi o'simliklar bilan qoplangan. O'simliklar dunyosi fitotsenoz deb ataladi. Fitotsenoz – bir xil sharoitda birga yashaydigan o'simliklar guruhi. Ushbu tezis orqali biz sizga fitotsenoz va suksessiya haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etamiz.

**Kalit so'zlar:** fitotsenoz, suksessiya, agrofotsenoz, o'simlik, intensiv, migratsiya, fitotsenologiya.

Kirish. fitotsenoz — geobotanika va biogeotsenologiya bo'limi (ba'zan geobotanika sinonimi). O'simlik jamoalari, jamoa hosil qiluvchi o'simliklarning o'zaro va biotsenozlarning boshqa komponentlari bilan aloqasini o'rganadi. fitotsenozlarning tashkil togtishi, almashinib turishi, yer yuzasida tarqalishi va tasnifi bilan ham shug'ullanadi. Fitotsenozning paydo bo'lishi 19-asr oxirida o'simlik qoplamlari to'g'risidagi tushunchalarning rivojlanishi bilan bog'liq.

Fitotsenoz bir necha yo'nalishda rivojlandi. Nemis olimi A. Gumboldt Fitotsenozning geografik yo'nalishini asoslab bergan. Mazkur yo'nalishning rivojlanishida rus olimi V. V. Dokuchayev, rus geobotaniklari G. N. Visotskiy, A. Ya. Gordyagin, B.A.Kellerning xizmatlari katta. 19-asrga kelib fitotsenozning tuzilishi haqidagi materiallar to'plandi (avstraliyalik botaniklar Y. Lorens, 1858; A. Kerner, 1863; finlyandiyalik botanik R. Xult, 1881 va boshqalar). ZXalqaro botanika kongressidan (1910) keyin elementar taksonomik birlik sifatida assotsiatsiya kabul qilindi, fitotsenozlarni o'rganish va assotsiatsiyalarga ajratishda har xil yo'nalishlar shakllandi.

Yerdagi o'simliklarga oid ekologik tadqiqotlar G. Valter ishlarida umumlashtirilgan. Fitotsenozlarni o'rganishning biologik yo'nalishini shveysariyalik botanik O. P. Dekandol asoslab berdi (1820, 1832). Bu yo'nalish Ch. Darvinniig "Turlarning kelib chiqishi" (1859) asari nashr etilgach, rivojlana boshladi. Dekandol va Darvin izdoshlari o'simlik jamoalarining tarkibi, strukturasi va o'zgarishi faqat iklim va tuproq sharoiti bilan emas, balki o'simliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bilan ham belgilanishini ko'rsatishgan. 19-asrning 70—80-yillarida mazkur yo'nalish rus olimlari N. F. Levakovskiy va S. I. Korjinskiy, so'ngra (20-asrda) G. F. Morozov va V. N. Sukachev ishlarida rivojlantirildi. Fitotsenozlardagi o'simliklar o'zaro aloqasining o'rganilishi eksperiment al fitotsenozni yuzaga keltirdi. Fitotsenoz grekcha so'z bo'lib, fiton o'simlik, koinos umumiy degan ma'noni anglatadi va o'simliklar qavmi, birlashib yashovchi o'simliklarning tabiiy guruhidir. Fitotsenoz-nisbatan bir xil muhitda bir-biriga moslashib, jamoa bo'lib yashaydigan o'simliklar majmui. Fitotsenozni tashkil qiluvchi o'simliklar o'z faoliyatida muhitga katta ta'sir ko'rsatadi va uni o'zgartiradi. O'simliklar tashqi muhitdan o'zi uchun zarur bo'lgan moddalarni o'zlashtiradi, tashqi muhitga esa moddalar almashinuvi mahsulotlarini mahsulotlarini chiqaradi. Fitotsenoz biotsenoz va biogeotsenozning eng faol qismi hisoblanib, quyosh nuri energiyasi va atmosferadagi azotni o'zlashtiradi. Fitotsenoz inson uchun oziq moddalar va energiya manbai hisoblanadi. Fitotsenoz ta'limotini o'rganadigan fan fitotsenologiya deb ataladi. V.N.A.Sukachev va P.D.Yaroshenkolar ning ta'kidlashicha, qishloq xo'jalik ekinlari; bug'doy, arpa, paxta, sholi

ekiladigan maydonlar fitotsenozning bir turi ya'ni agrofytosenoz deb ataladi. Bunga sabab maydonlar inson xo'jalik faoliyati natijasida sun'iy yaratilgan maydonlardir. Fitotsenoz terminini 1954-yilda Sukachev fanga kiritdi. T.A.Rabotnov har bir fitotsenozdagi o'simlik turlarining yoshi, ko'rinishi, holatiga qarab 4 davrga bo'lgan;

1. Latent davri-urug' yoki sporaning tinim holatidagi davri.
2. Virgil davri-turlarning nihol holatidagi davri. Bu davrda urug'palla hosil bo'ladi.
3. Generativ davri- o'simliklar hayotida urug' yoki spora hosil qilish davri.
4. Senil (qarilik) davri-o'simlikning generativ ko'payish xususiyatini yoqotish davri. [5]

Geobotanika fani o'simliklarni ikki tomonlama o'rganadi: birinchidan o'simliklarning tarkibiy qismiga kirgan o'simlik turlarini, ikkinchidan, o'simliklar jamoasini, qoplamini o'rganadi. Shu nuqtai nazardan ikkita tushunchani anglash shart. 1. O'simliklarflorasi O'simliklar florasi o'simlik turlarining qadimdan hosil bo'lgan guruhi. Bu ma'lum geografik joyga tegishli bo'lib, uning hozirgi tabiiy sharoiti o'tmishi bilan bog'liq, er yuzasidagi boshqa floralar bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Flora tushunchasi ma'lum hududdagi barcha o'simliklarning turlarini o'z ichiga oladi. Qisqacha aytganda ma'lum bir joyda o'suvchi o'simlik turlarining yig'indisi yoki ro'yxatini tushunamiz, O'zbekiston o'simliklarga boy o'lka, olti jildlik „O'zbekiston florasi“ nomli yirik asarda ko'rsatilishicha mamlakatimizda 4148 turga mansub yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar uchraydi. Respublikamizning boy xazinasi hisoblangan bu o'simliklar turi cho'l mintaqasidan tortib to yaylov mintaqasigacha keng tarqalgan. O'zbekistonning etuk botanik, geobotanik va sistematik olimi, akademik K. Z. Zokirov Zarafshon tog'ining boshlanishidan uning quyi etagigacha bo'lgan erlardagi o'simliklar qoplamini uzoq yillar ilmiy yo'nalishda o'rganib, cho'ldan yaylovgacha bo'lgan erlarda har xil o'simlik qoplamida 2600 ga yaqin tur uchrashini e'tiborga olib to'rta; cho'l, adir, tog', yaylov mintaqalariga bo'lishni taklif etdi. Bu atamalarni butun O'zbekiston va O'rta Osiyo uchun qo'llashni tavsiya qiladi. Biz hozirgi vaqtda qaysi region o'simliklar qoplamini o'rgansak shu atamalarni keng qo'llab kelamiz. Odatda mintaqalar ma'lum bir taksonomik birlikka asoslanadi. Ya'ni o'simliklar qoplamiga, jamoa tarqalgan tuproqqa, orografiyasiga, hamda dengiz sathidan balandligiga e'tibor beriladi. 2. O'simliklajamoasi. O'simliklar jamoasi deganda er yuzasining har xil ekologik sharoitida o'suvchi o'simliklar uyushmasini tushinamiz. O'simliklar qoplamini inson



xo'jalik faoliyati ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadi. Mehnat mahsuli sifatida sun'iy jamoalarni insonlar tashkil etib turadi.

1-rasm O'zR FA Botanika instituti geobotanika laboratoriyasi[6]

Fitotsenoz doimiy bo'lmasdan uning tarkibi va tashqi ko'rinishi yillar va yil fasllari davomida o'zgarib boradi. Natijada bir xil turlar o'rnini boshqalari egallaydi. Bir fitotsenoz boshqasi bilan almashadi bu jarayon suksessiya deb ataladi. Mavsumiy va yillik almashinuvlar vaqtinchalik jarayon bo'lib, davriy ravishda takrorlanib turadi. Ular iqlim sharoitiga bog'liq holda avvalgi holatiga qaytishlari kuzatiladi. Tabiatda bir fitotsenozni ikkinchisi bilan asta-sekin almashinuviga olib keladigan qaytmas jarayonlar ham sodir bo'ladi. Har bir fitotsenoz shakllanib, rivojlanadi. Uzoq vaqt davomida ba'zilar sekinroq, ba'zilar tezroq boshqa fitotsenoz bilan almashinadi. O'simliklar qoplamida bir xil fitotsenozlarning boshqalari bilan almashinuviga olib keladigan qaytmas o'zgarishlar almashinuvlar yoki suksessiya deb nomlanadi. Suksessiya so'zi lotinchadan olingan bo'lib, "ergashaman" degan ma'noni anglatadi. Suksessiyaga ichki va tashqi sabablar ta'sir o'tkazadi. Suksessiyaning tashqi sabablariga geografik muhit, iqlim, odam faoliyatining ta'siri, hayvonot dunyosining ta'sirlari kirsa, ichki sabablariga esa yashash uchun kurash, migratsiya, o'simliklarning ko'payish intensivligi kabi sabablar kiradi. Ekologlar odatda suksessiyani boshlanish nuqtasiga ko'ra farq qiluvchi ikki turga ajratishgan: Birlamchi suksessiya yangi yerning shakllanishi yoki ochiq qoyaning paydo bo'lishida kuzatilib, u ilk bor ishg'ol qilinishi mumkin bo'lgan tabiiy muhitni hosil qiladi. Ikkilamchi suksessiyada dastlabki egallangan hudud buzilib, undagi jamoaning hammasi yoki ko'pchiligi nobud bo'lganidan keyin yana qayta egallanadi. Suksessiyani ilk marotaba o'rgangan ekologlar suksessiya jarayonini oldindan aytish mumkin, jamoa doimo bir xil ketma-ketlikdagi bosqichlarni bosib o'tadi deb o'ylashgan. Shuningdek, ular suksessiyaning oxirgi barqaror, ya'ni atrof-muhit bilan muvozanatda bo'lgan holatini klimaks bosqichidagi jamoa deb nomlashgan va bu holat o'sha joyning iqlimi bilan belgilanadi deb hisoblashgan. Masalan, yuqorida keltirilgan misolda yetilgan eman va hikori o'rmoni muvozanatga erishgan, klimaks bosqichidagi jamoa hisoblangan.

#### References:

1. SH.Tojiboyev, M.U.Tojiboyev va boshqalar. "Geobotanika"
2. M.D.Jumaniyozova. "Geobotanika"
3. fayllar.org
4. arxiv.uz
5. uz.m.wikipedia.org
6. botany.uz
7. eas9y.uz